XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QARORI

191200, Termiz tumani At-Termiziy ko‘chasi 1-uy, tel:(376)36-32-200, faks: (376)36-32-200

2022 - yil 30 - iyun VI-43-89-8-117-K/22 Termiz tuman hokimligi

Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Karimov) zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tumani Xalq deputatlari Kengashi raisi



Urinov.SH.B

Xalq deputatlari Termiz tuman
Kengashining
2022 yil 30 iyundagi
VI-43-89-8-117-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

1. Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining 2016-yil 30-dekabr “Termiz tumanining 2016-yilgi mahalliy budjeti ijrosi va 2017-yil mahalliy budjeti asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi 5-23/70-sonli qarori.

2. Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining “Termiz tumanining 2017-yilgi mahalliy budjeti ijrosi va 2018 yilga mo‘ljallangan mahalliy budjetning asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi 5-32/118-sonli qarori.

3. Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining 2018-yil 27-dekabrdagi “Termiz tumanining 2018-yilgi mahalliy budjeti ijrosi va 2019-yil mahalliy budjeti asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”gi 5-40/175- sonli qarori.

4. Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining 2019-yil 6-noyabrdagi “Termiz tumani 2020-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 228/V-50-sonli qarori.

5. Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining 2020-yil 28-dekabrdagi “Termiz tumanining 2021-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 111/VI-20-sonli qarori.